



THE DIALECTICS OF THE PROCESSES OF PERSONALITY SOCIALIZATION AND INDIVIDUALIZATION

Makhmud Majitov

First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work

Termez State University of Engineering and Agrotechnologies

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Associate Professor

E-mail: mazhitov1981@inbox.ru

Science ID: FQD-0525-0076

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: personality, dialectics, socialization, individualization, internalization, externalization, subjectivity, identity, digital society, alienation.

Received: 04.08.26

Accepted: 05.08.26

Published: 06.08.26

Abstract: This article examines the fundamental philosophical problem of the interrelationship between socialization and individualization as two immanent and mutually conditioning aspects of the unified process of personality formation and development. It analyzes the evolution of philosophical views on this dualism, from ancient holism to postmodern conceptions. Particular attention is paid to the dialectical nature of their interaction, in which socialization functions as the process of the internalization of social experience, while individualization represents the externalization of the subject's unique potential.

SHAXS IJTIMOIYLASHUVI VA INDIVIDUALLASHUVI JARAYONLARINING DIALEKTIKASI

Maxmud Majitov

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

E-mail: mazhitov1981@inbox.ru

Ilmiy identifikatsiya raqami: FQD-0525-0076

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: shaxs, dialektika, ijtimoiylashuv, individuallashuv,

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs shakllanishi va rivojlanishining yagona jarayoni bo'lgan, ikki ichki (immanent) va bir-

interiorizatsiya (ichkilashtirish),
eksteriorizatsiya (tashqi namoyon etish),
subyektlik, identiklik, raqamli jamiyat,
beganalashuv.

birini taqozo etuvchi tomon sifatidagi
ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) va
individuallashuv o'rtasidagi o'zaro
bog'liqlikning fundamental falsafiy muammosi
tadqiq etiladi. Falsafiy fikr tarixida — antik
davr xolizmidan to postmodern
konsepsiyalarigacha bo'lgan ushbu dualizm
(ikkilik) haqidagi tasavvurlar evolyusiyasi
tahlil qilinadi. Ularning o'zaro ta'sirining
dialektik xususiyatiga alohida e'tibor
qaratiladi: bunda ijtimoiylashuv ijtimoiy
tajribani ichkilashtirish (interiorizatsiya)
jarayoni, individuallashuv esa subyektning
noyob salohiyatini tashqi namoyon etish
(eksteriorizatsiya) jarayoni sifatida ishtirok
etadi.

ДИАЛЕКТИКА ПРОЦЕССОВ СОЦИАЛИЗАЦИИ И ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ

Махмуд Мажитов

*Первый проректор по делам молодежи, духовно–просветительской работе, Термезский
государственный университет инженерии и агротехнологий*

доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент

E–mail: mazhitov1981@inbox.ru

Научный идентификационный номер: ID: FQD-0525-0076

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: диалектика, индивидуализация, экстериоризация, идентичность, отчуждение.	слова: личность, социализация, интериоризация, субъектность, цифровое общество,	Аннотация: В данной статье исследуется фундаментальная философская проблема взаимосвязи социализации и индивидуализации как двух внутренних (имманентных) и взаимно обуславливающих сторон единого процесса становления и развития личности. Анализируется эволюция представлений об этом дуализме в истории философской мысли – от античного холизма до концепций постмодернизма. Особое внимание уделяется диалектическому характеру их взаимодействия, при котором социализация выступает как процесс интериоризации социального опыта, а индивидуализация – как процесс экстериоризации уникального потенциала субъекта.
--	---	---

Kirish. Inson, uning shakllanishi, mohiyati va erkinlik chegaralari muammosi falsafiy diskursda an'anaviy ravishda markaziy o'rinni egallaydi. Asrlar davomida tadqiqotchilar inson

subyektivligi sirini ochishga intilib, ikki chekkalik o'rtasida muvozanat izladilar: insonni faqatgina ijtimoiy aloqalar mahsuli deb hisoblash va uni mutlaqo avtonom, ajralib chiqqan atom sifatida talqin qilish. Zamonaviy falsafada shaxs borlig'i ikki turli yo'nalishdagi, ammo ajralmas vektorlar — jamiyatga integratsiyalashuv (ijtimoiylashuv) va undan ajralish (individuallashuv) o'rtasidagi doimiy kuchlanish maydonida namoyon bo'lishi kunday ravshandir.

XXI asrning birinchi uchdan bir qismida zamonaviy jamiyat tuzilmasida sodir bo'layotgan chuqur transformatsiyalar natijasida postmodern, axborot sivilizatsiyasiga o'tish, hayotiy makonning yalpi (total) raqamlashtirilishi, an'anaviy qadriyatlar tizimi va institutlarining (oila, din, kasbiy hamjamiyatlar) zaiflashishi shaxs shakllanishi mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ijtimoiylashuvning an'anaviy matritsalarini o'z qat'iyligini yo'qotib, o'rnini mozaik, o'zgaruvchan identiklik shakllariga bo'shatib bermoqda. Shu bilan birga, individuallashuv ko'pincha atomizatsiya (yakkalanish), narsissizm va ijtimoiy begonalashuvga aylanib ketmoqda. Bunday sharoitda ijtimoiylashuv va individuallashuv dialektikasini fundamental falsafiy anglash, ularning ontologik asoslari va aksiologik (qadriyatli) yo'nalishlarini aniqlashga jiddiy ehtiyoj tug'iladi.

Inson shaxsi shakllanishining yaxlit tizimi sifatida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasidagi dialektik o'zaro bog'liqlikni eksplikatsiya qilish (ochib berish), shuningdek, zamonaviy jamiyat chaqiriqlari kontekstida ularning namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash bugun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dialektik metod ijtimoiylashuv va individuallashuvni qotib qolgan, bir-birini inkor etuvchi qarama-qarshiliklar sifatida emas, balki doimiy rivojlanishda hamda bir-biriga o'tishda bo'lgan dinamik birlik sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Shuningdek, tizimli, komparativ (qiyosiy) va fenomenologik yondashuvlar, falsafiy antropologiya hamda ijtimoiy falsafa metodlaridan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi. Antik davr falsafasida xolizm va kosmotsentrizm tamoyili ustuvorlik qilgan. Inson mikrokosm, ya'ni umumiy dunyo tartiboti (makrokosm) va polisning (shahar-davlatning) organik qismi sifatida tasavvur etilgan. Platon uchun davlatdan tashqaridagi individ haqiqiy mohiyat va ezgulikdan mahrumdir. Uning «Davlat» traktatida[14] tabaqalar qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, tarbiya jarayoni (ijtimoiylashuvning dastlabki shakli) individual irodani umumiy ezgulikka (adolatga) bo'ysundirishga qaratilgan. Bu yerda individuallashuv polis barqarorligiga tahdid, egoistik (xudbinlik) va nafsoniy boshlanishning namoyon bo'lishi sifatida qabul qilinadi. Aristotel ushbu tezisni insonni «siyosiy hayvon» (zoon politikon) deb atagan mashhur ta'rifi orqali mustahkamlaydi. Aristotel fikricha[2], davlat o'z tabiatiga ko'ra har bir alohida insondan oldin turadi, chunki butunlik (jamlik) muqarrar ravishda qismdan oldin mavjud bo'ladi. Antik davrda ijtimoiylashuv - bu insonning polis hayoti makonida o'z fuqarolik

va axloqiy shaklini topish jarayonidir. Individuallik esa faqat jamiyat farovonligi yo'lida fazilatlarni namoyon qilish doirasidagina tan olinadi.

O'rta asrlar davrida falsafiy izlanishlar vektori polisdan Xudoga tomon o'zgaradi. Teotsentrizm ushbu muammoni tubdan qayta shakllantiradi. Inson Xudoning surati va qiyofasida yaratilgan, o'lmas ruh hamda erkin irodaga ega bo'lgan noyob shaxs maqomini oladi. Avgustin Blajenniy o'zining «Iqror» asarida ichki psixologik tajriba, ya'ni ruhning Yaratuvchi bilan sirli muloqoti makonini ochib beradi, bu esa individuallashuvning xristianlik konsepsiyasiga asos soladi[1]. Biroq bu individuallashuv muqaddas (sakral) va vertikal xususiyatga ega edi. O'rta asrlar insonining ijtimoiylashuvi esa cherkov institutlari va tabaqaviy ierarxiya tomonidan qat'iy tartibga solingan. Shaxs individual tarzda najot topadi, ammo u imonlilarning universal jamoasi (Corpus Mysticum) bag'rida faoliyat yuritadi.

Modern (Yangi davr) erasi antropotsentrik burilishni amalga oshiradi. Rene Dekartning ratsionalizmi («Cogito, ergo sum» - «Fikrlayapman, demak mavjudman») o'z-o'zini anglovchi aqlni borliqning yagona ishonchli asosi deb e'lon qiladi[8]. Subyekt avtonomlashadi, tabiat va jamiyatdan ajraladi. Individuallashuv gnoseologik va gnoseo-ontologik maqomga ega bo'ladi: «Men» bilish va harakat qilishning suveren manbaiga aylanadi.

Yangi davrning ijtimoiy-falsafiy yo'nalishida ijtimoiy shartnoma konsepsiyasi (T. Gobbs, J. Lokk, J.-J. Russo) dunyoga keladi. Gobbs o'zining «Leviafan» asarida ajralib chiqqan, egoistik individlar «hammaning hammaga qarshi urushi»ni olib boradigan gipotetik «tabiiy holat»dan kelib chiqadi deydi [7]. Bu yerda individual boshlanish birlamchi bo'lib, ijtimoiylashuv (davlat tarkibiga kirish) - bu omon qolish yo'lidagi majburiy, sun'iy o'z-o'zini cheklash aktidir.

Jon Lokk esa, aksincha, insonni jamiyat va tajriba o'z yozuvlarini qoldiradigan «toza doska» (tabula rasa) sifatida ko'radi. Shu tariqa, Lokk ijtimoiylashuvning tashqi ta'lim-tarbiya sifatidagi empirik-sotsiologik modeliga asos soladi.

Jan-Jak Russo madaniyat va tabiat o'rtasidagi chuqur ziddiyatni ochib beradi: uning fikricha, jamiyat dastlabki pok «tabiiy inson»ni buzadi. Uning asarlarida («Emil yoki tarbiya to'g'risida») nizo aniq ifodalanadi: ijtimoiylashuv (sivilizatsiyaga integratsiyalashuv) haqiqiy individuallikni jilovlaydi va bostiradi[15].

Aynan nemis klassik falsafasida ijtimoiylashuv va individuallashuv muammosi dialektik tarzda anglab yetila boshlanadi.

Immanuil Kant insonning «noxush hamjihatlik antagonizmi» tushunchasini kiritadi[10]. Bir tomondan, inson boshqalar bilan muloqot qilishga intiladi, chunki bunday holatda u o'zini insondan ko'ra ustunroq his qiladi (o'zining tabiiy qobiliyatlarini rivojlantiradi). Ikkinchi

tomondan, unda yolg'izlikka, yakkalanishga kuchli intilish ham mavjud, chunki u atrofdagilarning qarshiligiga duch keladi. Kantning fikricha, aynan mana shu antagonizm madaniyat va taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

G.V.F. Hegel o'zining Obyektiv va Absolyut ruh konsepsiyasida ushbu ziddiyatni bartaraf etadi. O'zining «Huquq falsafasi» asarida[6] u oila sohasidan (tabiiy ijtimoiylik) fuqarolik jamiyati (shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi tarqoq, egoistik va ajralib chiqqan individlar sohasi) orqali davlatgacha bo'lgan dialektik harakatni oliy sintez sifatida tasvirlaydi. Davlatda individual erkinlik ijtimoiy zaruriyat bilan mos tushadi. Hegel uchun shaxs faqat boshqalar tomonidan tan olinganda va o'zini umuminsoniy aqlning bir qismi sifatida anglagandagina haqiqiy shaxsga aylanadi.

Karl Marks gegelcha yondashuvni radikallashtirib, uni materializm iziga ko'chiradi. Feyerbax haqidagi tezislari u quyidagi klassik qoidani shakllantiradi: «Inson mohiyati alohida individga xos bo'lgan mavhumlik emas. O'zining haqiqiy voqeligida u barcha ijtimoiy munosabatlarning majmuidir»[12].

Marksizm uchun ijtimoiylashuv - bu shunchaki tarbiya emas, balki individning ishlab chiqarish munosabatlarining konkret-tarixiy tizimiga kirishi, madaniyatning moddiy dunyosini o'zlashtirishidir. Biroq Marks individuallikni inkor etmaydi; aksincha, uning ideali begonalashgan mehnatdan ozod bo'lgan «har tomonlama rivojlangan shaxs»dir. Marksga ko'ra, kommunistik jamiyatda «har bir insonning erkin rivojlanishi barchaning erkin rivojlanishi shartidir».

XX asr insonning klassik ratsionalistik modeli inqirozini ochib berdi. Ekzistensializm (J.-P. Sartr, A. Kamyu, M. Xaydegger) radikal individuallashuvning izchil himoyachisi sifatida maydonga chiqdi. Xaydegger[20] insonning kundalik borlig'ini Das Man - konformizm (bo'ysunuvchanlik), o'rtamiyonalik, vaysaqilik va behuda qiziquvchanlik hukmron bo'lgan qiyofasiz «Biz» sohasidagi nohaqiqiy mavjudlik sifatida tasvirlaydi. Ilk egzistensializm terminlarida ijtimoiylashuv ko'pincha shaxsni bir qolipga solish (tekislash) va unga begona rollarni majburan singdirish sifatida talqin etiladi. Haqiqiy individuallashuv («haqiqiylikka erishish») egzistensial «chegaradosh vaziyatlar»da - o'lim, aybdorlik, qo'rquv qarshisida, inson o'z radikal yolg'izligini va o'z tanlovi uchun mutlaq mas'uliyatini anglab yetgan paytda sodir bo'ladi.

XX asrda bunga mutlaqo qarama-qarshi qutbni «muallifning o'limi» va «insonning o'limi»ni e'lon qilgan strukturalizm va poststrukturalizm (M. Fuko, L. Altyusser, J. Derrida) egalladi. Mishel Fuko o'zining tadqiqotlarida («Nazorat qilish va jazolash», «Jaholat tarixi») Yangi davr «subyekt» va «individuallik» deb atagan tushunchalar aslida murakkab diskursiv

amaliyotlar, intizomiy makonlar va hokimiyat institutlari (maktab, qamoqxona, shifoxona, armiya) mahsuli ekanligini ko'rsatib berdi[19]. Bu yerda ijtimoiylashuv tana va aqlni «dressirovka qilish» (mushtlash), hokimiyatning mikrotuzilmalari tomonidan subyektni sun'iy ravishda yaratish (fabrikatsiyalash) sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, tarixiy-falsafiy retrospektiva falsafiy fikrning ijtimoiy butunlik ustuvorligi va alohida «Men» suvereniteti o'rtasida doimiy tebranib turganini ko'rsatadi. Zamonaviy falsafiy fikr ushbu kategoriyalarning yangi dialektik sintezini amalga oshirish vazifasini o'z oldiga qo'yadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shaxs ijtimoiylashuvi va individuallashuvi jarayonlarining dialektikasiga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning germenevtik tahlil, analiz, sintez, tarixiy tahlil kabi usullaridan samarali foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Ijtimoiylashuv va individuallashuv dialektikasini chuqur falsafiy tahlil qilish uchun antropologik diskursning asosiy kategoriyalarini qat'iy ravishda bir-biridan farqlash lozim. Mahalliy va xorijiy falsafiy an'analarda uch qismli bo'linish mustahkam o'rin olgan: individ, individuallik, shaxs.

Individ - bu inson zotining alohida (yagona) vakili, o'zining tabiiy borlig'idagi bioijtimoiy mavjudotdir. Individ kategoriyasi konkret organizmning morfologik va genetik yaxlitligini ifodalaydi. Individ bo'lib tug'iladilar. Bu keyingi jarayonlar rivojlanadigan ontologik hisob nuqtasi, asos (substrat) hisoblanadi.

Shaxs - bu individning ijtimoiy munosabatlar tizimiga, birgalikdagi faoliyat va muloqotga kirishish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy sifatidir. Shaxs o'z-o'zini anglash, dunyoqarash, qadriyatli yo'nalishlar, subyektlik (omilkorlik - dunyoni anglagan holda maqsad qo'yish va uni o'zgartirish qobiliyati) hamda mas'uliyat bilan tavsiflanadi. Shaxs bo'lib ijtimoiylashuv jarayonida yetishiladi.

Individuallik – bu muayyan insonning takrorlanmas o'ziga xosligi, uning tabiiy (psixofiziologik) va orttirilgan (ijtimoiy, ma'naviy) sifatlarining noyob uyg'unligidir. Individuallik insonning o'zgachalik darajasini, uning boshqalardan farqini ifodalaydi. Agar «shaxs» tushunchasi insondagi universal, ijtimoiy ahamiyatga molik jihatlarga urg'u bersa, «individuallik» esa alohida, o'ziga xos va noyob jihatlarga e'tibor qaratadi. Individuallik individuallashuv jarayonida himoya qilinadi va rivojlantiriladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ijtimoiylashuv – bu shunchaki katta avloddan kichik avlodga bilimlarni uzatishdan iborat bo'lgan pedagogik jarayon emas. Bu biologik zotning (Homo

sapiens) insoniy shaxsga transformatsiyalanishi va umuminsoniy mohiyatni kasb etishini ta'minlaydigan fundamental ontologik jarayondir.

Jamiyat – bu individlarning mexanik yig'indisi emas, balki individlardan ustun turuvchi voqelik, obyektivlashgan ruh (Gegel bo'yicha) yoki institutlar va belgilar tizimidir. Inson tug'ilishi bilan allaqachon tarkib topgan dunyoga: til, an'analar, moddiy madaniyat, ijtimoiy rollar va axloqiy me'yorlar dunyosiga qadam qo'yadi. Bu dunyo individ uchun oldindan belgilangan bo'lib, unga nisbatan obyektiv zaruriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiylashuv jarayoni madaniyatning vaqt davomida uzatilishini (avlodlar vorisiyligini) va ijtimoiy makonning integratsiyalashuvini (birlashishini) ta'minlaydi. Ijtimoiylashuvsiz jamiyatni yaxlit tizim sifatida qayta tiklash mumkin emas. Ikkinchi tomondan, individning o'zi uchun ham ijtimoiylashuv ontologik jihatdan yashab qolish va ildiz otishning yagona yo'lidir. «Maugli» bolalar fenomeni (inson jamiyatidan ajralgan holda o'sgan individlar) shuni ishonchli tarzda isbotlaydiki, ijtimoiy aloqalardan tashqarida inson ruhiyati va ongi asosan shakllanmaydi. Inson Inson sifatida namoyon bo'lishi uchun boshqa bir insonga (Atrofdagilarga) ehtiyoj sezadi.

Agar ijtimoiylashuv integratsiyaga (birlashishga), universallashtirishga va tiplastirishga (bir qolipga solishga) intilsa, individuallashtirish – bu differentsiatsiyaga (farqlanishga), avtonomlashuvga va partikulyarizatsiyaga (ajralib chiqishga) qaratilgan vektordir. Ontologik nuqtai nazardan, individuallashtirish borliqning o'z rang-barangligi orqali mavjud bo'lish usulini anglatadi. Har bir inson – bu koinotning o'ziga xos jamlanish nuqtasi, borliq o'z-o'zini anglaydigan takrorlanmas rakursdir.

Individuallashtirishning falsafiy ma'nosi erkin iroda, ijod va o'z-o'zini namoyon qilish kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. Agar insonning shakllanish jarayoni faqatgina ijtimoiylashuvdan iborat bo'lganida edi, insoniyat erkinlik va rivojlanishdan mahrum bo'lgan bir xil termitlar koloniyasiga aylanib qolgan bo'lardi. Har qanday tizimning (jumladan, jamiyatning ham) rivojlanishi faqat fluktuatsiyalar (o'zgarishlar), ya'ni individuallikning noyob ijodiy akti olib kiradigan me'yordan chetga chiqishlar mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi.

Individuallashtirish – bu insonning ichki salohiyati, uning «o'zligi» (K.G. Yung terminlarida - «samost») namoyon bo'lishi va ochilishi jarayonidir[21]. Bu qiyofasiz mavjudlikdan o'z hayotining anglangan muallifligiga tomon yuksalishdir. Individuallashtirish jasoratni talab qiladi (Paul Tillich ta'kidlaganidek[17], «o'zi bo'lish jasorati»), chunki u guruh stereotiplaridan refleksiv ravishda masofalanishni, o'z ichki yaxlitligini saqlash va shaxsiy ekzistensial qadriyatlariga sodiq qolish yo'lida jamiyat bosimiga «yo'q» deya olish qobiliyatini muqarrar ravishda taqozo etadi.

Ijtimoiylashuv va individuallashuvning o'zaro bog'liqligi chuqur dialektik xususiyatga ega bo'lib, inson hayot faoliyatining yagona pulsatsiyalanuvchi jarayonining ikki bosqichini tashkil etadi. Ushbu o'zaro ta'sirning falsafiy-psixologik mexanizmi sifatida tashqilikni ichkilikka ko'chirish (interiorizatsiya) va ichkilikni tashqilikka olib chiqish (eksteriorizatsiya) jarayonlari ishtirok etadi.

Interiorizatsiya - bu tashqi ijtimoiy tuzilmalar, belgilar tizimlari, qadriyatlar va me'yorlarning individ tomonidan o'zlashtirilishi, uning ruhiyatining ichki tuzilmalariga, shaxsiy ishonch-e'tiqodlari va motivlariga (vajlariga) aylanish jarayonidir. L.S. Vigotskiy yozganidek[5], har qanday oliy ruhiy funktsiya sahnada ikki marta paydo bo'ladi: avval jamoaviy, ijtimoiy (interpsixik) faoliyat sifatida, keyin esa bolaning ichki fikrlash usuli (intrapsexik) sifatida. Biz fikrlaydigan va ichki monolog olib boradigan til bizga jamiyat tomonidan berilgan. Shu tariqa, bizning eng chuqur individualligimizning o'zi ijtimoiy iplardan to'qilgandir. Biz ijtimoiylashuv bizga taqdim etadigan vositalar yordamida individuallashamiz.

Eksteriorizatsiya - bu teskari jarayon, ya'ni shaxsning ichki ma'no-mazmunlari, maqsadlari, qadriyatlari va ijodiy g'oyalarining tashqi moddiy va ijtimoiy dunyoda obyektivlashishi (namoyon bo'lishi)dir. Inson madaniyatni shunchaki passiv ravishda singdirib olmaydi (faqatgina ijtimoiylashmaydi), balki uni o'zining noyob tajribasi olovida qayta ishlab, jamiyatga yangi g'oyalar, san'at asarlari, texnik ixtirolar, siyosiy harakatlar yoki axloqiy ish-amallar shaklida qaytaradi.

Eksteriorizatsiya aktida individuallik o'zining ijtimoiy e'tirofini va borliqdagi (ontologik) maqomini oladi. Mening individualligim tashqi dunyoni o'zgartiradigan faoliyatda o'z aksini topmaguncha, u shunchaki bir illyuziya (xomxayol) yoki mevasiz fantaziya bo'lib qolaveradi. Eksteriorizatsiya orqali individual ijodkorlik jamiyat mulkiga aylanadi, uning madaniyatini boyitadi va keyingi avlodlar uchun ijtimoiylashuvning yangi sikllarini (davrlarini) ishga tushiradi. Mana shu nuqtada ijtimoiylashuv va individuallashuv cheksiz dialektik spiraldan bir-biri bilan tutashadi.

Shaxs qotib qolgan (statik) bir natija emas, balki ijtimoiylashuv va individuallashuv o'rtasidagi muvozanatni saqlab turuvchi jonli jarayondir. Bu qarama-qarshiliklarning birligidir.

Ijtimoiylashuvsiz individuallashuv tildan va o'zini ifodalash vositalaridan mahrum bo'lgan bo'sh salohiyatga (potensiyaga) aylanadi. Yovvoyi, tabiiy mavjudot insoniy ma'nodagi individuallikka ega bo'lmaydi, u turning qat'iy biologik instinktlariga bo'ysunadi.

Individuallashuvsiz ijtimoiylashuv yalpi (total) konformizmga, bir qolipda shtamplanishga va depersonalizatsiyaga (qiyofasizlashishga) aylanadi. Inson ijtimoiy

megamashinaning fikrlamaydigan kichik bir vintiga, o'zgalar dasturlarini takrorlovchi funksional robotga aylanib qoladi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi dialektik qonuni bu yerda har bir jarayon o'z qarama-qarshiligini oziqlantirishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiylashuvning chuqurlashishi (muloqot doirasining kengayishi, jahon madaniyatining yangi qatlamlarini o'zlashtirish) shaxsga individual tanlov va refleksiya (mushohada) uchun juda boy material beradi. Insonning madaniy dunyoqarashi qanchalik keng bo'lsa, u elementlarning shunchalik noyob kombinatsiyasini yarata oladi va shunchalik o'ziga xos ijodkorga aylanadi. O'z navbatida, voyaga yetgan, chuqur individuallashgan shaxs muammolarning noan'anaviy yechimlarini taklif qilish va ijtimoiy institutlarni rivojlantirish orqali jamiyatga ancha katta foyda keltirishga qodir bo'ladi.

Shaxsning uyg'un rivojlanishi dinamik muvozanatni taqozo etadi. Bu jamiyat bilan birdamlik (solidarlik) va undan avtonomlik (mustaqillik) o'rtasidagi, konvensional xulq-atvor (o'yin qoidalariga rioya qilish) va nonkonformizm (ushbu qoidalarni tanqidiy qayta anglash) o'rtasidagi muvozanatdir. Ushbu muvozanatning mezoni sifatida subyektlik ishtirok etadi — bu shaxsning jamiyat bilan singishib ketish va undan ajralish chegaralarini belgilagan holda, sotsium bilan o'z munosabatlarini mustaqil tartibga solish qobiliyatidir.

Real tarixiy va ijtimoiy amaliyotda ijtimoiylashuv va individuallashuvning uyg'un sinteziga (birlashishiga) juda kamdan-kam hollarda erishiladi. Ko'pincha shaxs tuzilmasining deformatsiyasiga (buzilishiga) va ijtimoiy patologiyalarga olib keladigan chuqur disbalanslar (nomutanosibliklar) kuzatiladi. Ushbu disbalanslarning falsafiy tahlili ularning mohiyatini begonolashuv, konformizm va atomizatsiya tushunchalari prizmasi orqali ochib berish imkonini beradi.

Ijtimoiylashuv tomonga og'ish (disbalans) giperijtimoiylashuv fenomeniga va konformizmning ustuvorligiga olib keladi. Bunday holatda jamiyat institutlari (davlat, mafkura, ommaviy axborot vositalari, korporativ madaniyat) individga shu qadar kuchli va repressiv (tazyiqli) bosim o'tkazadiki, natijada uning individuallashuv salohiyati butunlay bostiriladi.

Erix Fromm o'zining «Ozodlikdan qochish» nomli klassik asarida[18] ushbu mexanizmni batafsil tasvirlab bergan. Yolg'izlik qo'rquvi va individual mas'uliyat yukiga duch kelgan Yangi davr insoni ko'pincha o'z xohishi bilan o'z noyobligidan voz kechadi. U «avtomatlashtiruvchi konformizm» mexanizmiga murojaat qiladi: individ madaniyat shablonlari unga taklif qilayotgan shaxs tipini butunlay o'zlashtiradi va xuddi boshqalar kabi hamda ular ko'rishni istagandek odamga aylanadi. «Men» va tashqi dunyo o'rtasidagi farq yo'qoladi, bu farq bilan birga qo'rquv ham g'oyib bo'ladi.

Yalpi (total) konformizmning falsafiy oqibatlari fojialidir:

Shaxs o'z subyektligini yo'qotadi va manipulyatsiyalar (yashirin boshqaruv) obyektiga aylanadi.

Tanqidiy fikrlashning atrofiyasi (ishdan chiqishi) sodir bo'ladi.

Umuman jamiyatning ijodiy salohiyati pasayadi.

Totalitar rejimlarning yuzaga kelishi uchun qulay zamin yaratiladi (XX asr tajribasi ko'rsatganidek); bunday tuzumlarda «Individ – hech narsa, jamiyat – hamma narsa» shiori davlat doktrinasi darajasiga ko'tariladi. Gerbert Markuze terminlari bilan aytganda[13], bunday inson ehtiyojlari va istaklari industrial-byurokratik tizim tomonidan to'liq shakllantiriladigan va nazorat qilinadigan «bir o'lchamli inson»ga aylanib qoladi.

Qarama-qarshi disbalans – giperindividuallashuv tomonga og'ish – jamiyatning atomizatsiyalashuviga (tarqoqlashishiga) va yalpi begonalashuvga olib keladi. Ushbu tendensiya mutlaq individual muvaffaqiyat va bozor raqobati kultini e'lon qilgan so'nggi kapitalizm va neoliberal mafkura davrida ustuvor yo'nalishga aylandi.

Ushbu fenomenning falsafiy ildizlari E. Dyurkgeym tomonidan ishlab chiqilgan «anomiya» tushunchasiga [9] va K. Marksning «begonalashuv» konsepsiyasiga borib taqaladi. An'anaviy ijtimoiy aloqalar va birdamlik (solidarlik) parchalanganda, individ radikal egotsentrizm (xudbinlik) makoniga ulotqirib tashlanadi. Jamiyat u tomonidan o'z uyi va rivojlanish sharti sifatida emas, balki dushmanona muhit, begona va xavfli bo'lgan «Boshqalar»ning majmui sifatida qabul qilina boshlaydi (J.-P. Sartning ekzistensial tezi: «Do'zax — bu Boshqalardir»)[16].

Giperindividuallashuv o'ziga xos shaxs tipini yuzaga keltiradi, amerikalik sotsiolog va faylasuflar (masalan, Kristofer Lesh) buni «narsissizm madaniyati» deb ataganlar[11]. Narsissik shaxs o'z-o'zini namoyon qilish (taqdim etish), iste'molchilik, lazzatlanish va o'z tashqi qiyofasini (tanasi, maqomi, imijini) cheksiz «yaxshilash»ga mukkasidan ketgan bo'ladi. Biroq bo'rttirilgan individuallikning bunday tashqi namoyishi ortida chuqur ichki bo'shliq, xavotir, haqiqiy yaqinlikka, sevgiga va ijtimoiy xizmatga qodir bo'lmaslik yashiringan bo'ladi.

Atomizatsiyalashgan individ o'zini mutlaqo erkin va avtonom deb hisoblab, illyuziya (xomxayol) bag'rida yashaydi. Voqelikda esa, ijtimoiy ildizlaridan uzilib, u ommaviy madaniyat va marketing texnologiyalarining manipulyatsiyalari (yashirin boshqaruvi) qarshisida maksimal darajada zaif bo'lib qoladi. Uning «individual tanlovi» aslida moda va iste'molchilik konveyeri tomonidan qat'iy dasturlashtirilgan bo'lib chiqadi. Shu tariqa, giperindividuallashuv paradoksal (ziddiyatli) tarzda, dialektik jihatdan o'z qarama-qarshiligiga — depersonalizatsiya (qiyofasizlashish) va standartlashishning eng nozik, niqoblangan shakliga aylanadi.

XXI asrning birinchi uchdan bir qismida ijtimoiylashuv va individuallashuv dialektikasi sifat jihatidan yangi makonda — raqamli voqelik (kibermakon) hududida namoyon bo‘lmoqda. Raqamlashtirish shunchaki texnologik omil bo‘lishdan to‘xtadi; u inson borlig‘ining yangi antropologik va ontologik nishasiga (yashav makoniga) aylandi. Jan Bodriyyar ushbu dunyoni belgilar va nusxalar jismoniy voqelikning o‘zini siqib chiqaradigan simulyakrlar va gipervoqelik dunyosi sifatida oldindan ko‘ra bilib tasvirlagan edi[4].

Mahalliy, ierarxik va fazoviy-vaqtli xususiyatga ega bo‘lgan an‘anaviy ijtimoiylashuv institutlari (oilalar, maktab, universitet, mehnat jamoasi) o‘z monopoliyasini yo‘qotmoqda. Ularning o‘rnini raqamli ijtimoiylashuv agentlari egallamoqda: ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv algoritmlari, metaolamlar, geymerlar hamjamiyatlari, inflyuenserlar (bloggerlar) va sun‘iy intellekt.

Raqamli ijtimoiylashuvning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi belgilarda namoyon bo‘ladi:

Eksterritoriallik va uzluksizlik. Tarmoq muhitining ijtimoiylashtiruvchi ta’siri geografik chegaralarni bilmaydi va 24/7 rejimida davom etadi. Indivud bir vaqtning o‘zida ham mahalliy borliqqa ildiz otgan, ham global axborot oqimlariga integratsiyalashgan bo‘ladi.

Gorizontallik va mozaiklik (tarqoqlik). Tajribaning kattalardan kichiklarga vertikal uzatilishi o‘rniga, tarmoq tugunlari va «aks-sado kameralari» (exo-kamera) ichidagi gorizontalar (tengdoshlar aro) ijtimoiylashuv ustuvorlik qilmoqda. Bilim va qadriyatlar tizimli ravishda emas, balki parchalangan holda, «klipli kontent» shaklida o‘zlashtiriladi.

Algoritmik determinatsiya (belgilanish). Ijtimoiylashayotgan subyektning xulq-atvori va xohish-istaklari tavsiyaviy tizimlar algoritmlari («filtr pufakchalari») tomonidan sezilarli darajada boshqariladi. Shoshana Zuboff ta’riflaganidek, raqamli platformalar tijorat foydasi yo‘lida odamlarning xulq-atvorini o‘zgartiradigan «kuzatuv kapitalizmi») sodir bo‘lmoqda.

Raqamli voqelik individuallashuv jarayonlarini ham tubdan transformatsiya qilmoqda. Bugungi kunda «tarmoqli individuallik» yoki «raqamli Men» deb atash mumkin bo‘lgan fenomen yuzaga kelmoqda.

Virtual makonda individ o‘z identikligini (o‘zligini) loyihalashtirish uchun ilgari kuzatilmagan keng erkinlikka ega bo‘ladi. U tarmoqdagi o‘zaro ta’sir kontekstiga qarab bir nechta profillar (avatarlar) yaratishi, jinsi, yoshi, tashqi qiyofasini o‘zgartirishi va tarjimai hollarni to‘qib chiqarishi mumkin. Faylasuf Zigmunt Bauman bu holatni «o‘zgaruvchan zamonaviylik» (liquid modernity) deb tavsiflagan edi[3]; bunda identiklik bir marta va butunlayga erishiladigan mustahkam narsa bo‘lishdan to‘xtaydi. U doimiy yangilanishni va

raqamli tasdiqni («layk»lar, ko‘rishlar soni, sharhlarni) talab qiladigan cheksiz loyihaga, performansga aylanadi.

Biroq individuallashuvning bunday yuzaki erkinligi o‘z ichida chuqur ekzistensial xavf-xatarlarni yashiradi:

«Men»ning parchalanishi va shizofreniyalashuvi. Raqamli avatarlarning ko‘pligi shaxs yadrosining zaiflashishiga, haqiqiylikning (autentiklikning) yo‘qolishiga va real dunyoda o‘z «Men»ini yaxlit, ziddiyatsiz tizimga jamlay olmaslikka olib kelishi mumkin.

Ekzistensial ekskizitsionizm (o‘zini ko‘z-ko‘z qilish). Tarmoqdagi individuallashuv ko‘pincha simulyakrni — ideallashtirilgan raqamli qiyofadoshni (dvoynikni) yaratishga borib taqaladi. Inson hayot tajribasining o‘zi uchun emas, balki uning tarmoqdagi taqdimoti (reprezentatsiyasi) uchun yashay boshlaydi. Tarmoqda ko‘rsatilmagan voqelik go‘yoki mavjud emasdek tuyula boshlaydi.

Tarmoqdagi yolg‘izlik. Ijtimoiy mediada yuqori darajadagi bog‘liqlik illyuziyasi va minglab «do‘stlar» mavjudligiga qaramay, individ ko‘pincha juda chuqur yakkalanishni his qiladi. Tarmoqdagi aloqalar yuzaki bo‘lib, ular real hayotdagi yuzma-yuz muloqotga xos bo‘lgan jismoniy borliqdan, haqiqiy empatiyadan (hamdardlikdan) va ekzistensial tavakkalchilikdan mahrumdir.

Raqamli muhitda dialektik ziddiyat eng yuqori nuqtasigacha keskinlashadi. Bir tomondan, Tarmoq o‘z-o‘zini namoyon qilish, ijod va shaxsiylashtirilgan ta’lim uchun ulkan vositalarni taqdim etadi (chuqur individuallashuv). Ikkinchi tomondan, u memlar, trendlar va katta ma’lumotlar (big data) algoritmlari orqali fikrlashni tarixda kuzatilmagan darajada yalpi monitoring qiladi va standartlashtiradi (yashirin, total ijtimoiylashuv/unifikatsiya). Zamonaviy inson jiddiy chaqiriq qarshisida turibdi: global raqamli matritsaga doimiy ravishda ulangan holda, o‘z suverenitetini (mustaqilligini) qanday saqlab qolish mumkin?

Identiklik inqirozi hamda ijtimoiy va shaxsiy borliq o‘rtasidagi disbalanslarni bartaraf etish yo‘llarini izlash normativ falsafiy strategiyalarni ishlab chiqishga undaydi. Olib borilgan dialektik tahlil asosida zamonaviy voqelikda ushbu jarayonlarni uyg‘unlashtirishning uchta asosiy yo‘nalishini (orientirini) ajratib ko‘rsatish mumkin.

Raqamli shovqin va algoritmik bosim sharoitida tanqidiy refleksiyani (mushohadani) rivojlantirish individuallikni saqlab qolishning eng muhim shartiga aylanmoqda. Shaxs kontentning passiv iste’molchisi pozitsiyasini emas, balki faol tadqiqotchi o‘rnini egallashi lozim. Mediafalsafiy yondashuv (V. Flyusser va M. Maklyuen an’alarida) ongimizni boshqaradigan yashirin kodlar va mediadasturlarni anglab yetish zarurligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda individuallashuv — bu anglangan raqamli asketizm (tiyilish) va mental gigienaga boʻlgan qobiliyatdir. Bu tarmoqdan chiqa olish, majburan singdirilayotgan simulyakrlarni dekonstruksiya qilish (qismlarga ajratib tahlil qilish), «trendlar»ga qaramay, tanlov avtonomiyasini amalga oshirish mahoratidir. Oʻz navbatida, taʼlim institutlaridagi ijtimoiylashuv jarayoni faktlarni mexanik ravishda yodlashdan shaxsga axborot xaosida yoʻnalish topish imkonini beruvchi tizimli fikrlashni, metodologik madaniyatni va qadriyatlar oʻzagini shakllantirishga qayta yoʻnaltirilishi lozim.

Giperindividuallashuv va begonalashuvni bartaraf etish intersubektivlik va muloqot tamoyillariga (M. Buber va E. Levinas falsafasi ruhida) asoslangan haqiqiy ijtimoiylikni qayta tiklash yoʻllarida yotadi. Inson oʻz haqiqiy «Men»ini faqat «Boshqa inson»da maqsadlarga erishish vositasini yoki oʻz narsissizmi uchun koʻzguni emas, balki suveren, oʻz-oʻzidan qimmatli boʻlgan Borliqni koʻrgandagina topadi.

Liberal atomizatsiyaga falsafiy muqobil (alternativa) sifatida kommunitarizm gʻoyasi (Ch. Teylor, A. Makintayr) maydonga chiqadi. XXI asr kontekstida gap majburlash yoki kelib chiqish bilan emas, balki umumiy qadriyatlar, bunyodkorlik faoliyati va oʻzaro masʼuliyat bilan birlashgan «yangi tipdagi kommunitarizm»ni - moslashuvchan, ochiq hamjamiyatlarni (real dunyoda ham, tarmoqda ham) yaratish haqida bormoqda. Bunday hamjamiyatlarda ijtimoiylashuv repressiv (tazyiqli) emas, balki qoʻllab-quvvatlovchi xususiyatga ega boʻladi: guruh har bir ishtirokchining individualligi ochilishiga yordam beradi, individuallik esa, oʻz navbatida, guruh salohiyatini kuchaytiradi.

Ijtimoiylashuv va individuallashuv dialektikasining oliy sintezi masʼuliyatli erkinlik kategoriyasidir. Masʼuliyatsiz erkinlik - bu vayronkor oʻzboshimchalik (giperindividuallashuv); erkinliksiz masʼuliyat esa - bu qullik konformizmi (giperijtimoiylashuv).

XXI asrning global ekologik, antropologik va texnologik chaqiriqlari davrida shaxs masʼuliyatining koʻlami kosmik va sayyoraviy miqyosgacha kengayadi. Individuallashuv vektori butun insoniyat farovonligi vektori bilan mos kelishi kerak. Shu munosabat bilan, kosmizmning rus falsafiy anʼanasi va Noosfera konsepsiyasi (V.I. Vernadskiy, Teyyar de Sharden) dolzarblik kasb etadi.

Kelajak shaxsi - bu noosfera subyektidir. Uning ijtimoiylashuvi oʻzini shunchaki tor etnik yoki kasbiy guruhning bir qismi sifatida emas, balki biosferani saqlash hamda tabiat va jamiyatning koevolyusiyasi (birgalikda uygʻun rivojlanishi) uchun masʼul boʻlgan Yer fuqarosi sifatida anglashni oʻz ichiga oladi. Uning individuallashuvi esa - umuminsoniy vazifalarni hal qilish uchun oʻzining noyob aql-zakovati va ijodiy irodasini maksimal darajada rivojlantirishdan

iborat. Bu nuqtada ijtimoiylik va individuallik o'rtasidagi ziddiyat barham topadi va ular borliqni ijodiy o'zgartirishning sinergetik birligida singishib ketadi.

Xulosa. Shaxs ijtimoiylashuvi va individuallashuvi jarayonlari dialektikasi yuzasidan olib borilgan falsafiy tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Dialektik ajralmaslik. Ijtimoiylashuv va individuallashuv avtonom emas, balki antropogenez va personogenez (inson va shaxs shakllanishi) yagona jarayonining ontologik jihatdan ajralmas, bir-birini taqozo etuvchi tomonlaridir. Shaxs jamiyatsiz (interiorizatsiya orqali uning tili, madaniyati va tajribasini o'zlashtirmasdan) mavjud bo'la olmaydi, o'z navbatida, jamiyat ham individuallikning (eksteriorizatsiya orqali namoyon bo'ladigan) noyob ijodiy turtkisisiz hayotsiz va statik (qotib qolgan) bo'lib qoladi.

Tarixiy dinamika. Ushbu muammoning falsafiy refleksiyasi individni polisga bo'ysunturgan antik davr xolizmidan, o'rta asrlarning vertikal teotsentrizmi va Yangi davr Ovrupo suveren ratsionalizmi orqali nemis klassikasi, marksizm hamda XX asr ekzistensial protestining (noroziligining) murakkab dialektik modellarigacha evolyusiyalashib bordi. Har bir bosqich jamiyatning real holatini va unda inson avtonomiyasining (mustaqilligining) darajasini aks ettirgan.

Disbalanslar (nomutanosibliklar) xavfi. Ushbu jarayonlar o'rtasidagi dinamik muvozanatning har qanday tarzda buzilishi vayronkor (destruktiv) oqibatlariga olib keladi. Ijtimoiylashuvning ustuvorlik qilishi giperijtimoiylashuvni, konformizm va «bir o'lchamlilik»ni yuzaga keltiradi hamda «Men»ni qiyofasiz omma ichida eritib yuboradi. Individuallashuv tomonga og'ish esa atomizatsiya, begonalashuv, «narsissik madaniyat»ning soxta erkinligiga va yakunda iste'molchilik qoliplari (kanonlari) orqali depersonalizatsiyaga (qiyofasizlashishga) aylanadi.

Raqamli davr chaqiriqlari. Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli voqelik ijtimoiylashuv institutlarini transformatsiya qilib, ularni mozaik (tarqoq) va algoritmik tarzda nazorat qilinadigan holatga keltirmoqda. Individuallashuv «tarmoqli identiklik» — o'zgaruvchan, ko'p tarmoqli va virtual shaklni kasb etmoqda. Bu o'z-o'zini namoyon qilishning misli ko'rilmagan erkinligi va ongning yalpi raqamli nazorati/standartlashishi o'rtasidagi dialektik ziddiyatni keskinlashtiradi.

Uyg'unlikka (garmoniyaga) eltuvchi yo'l. XXI asrda shaxsning omon qolishi va har tomonlama to'liq rivojlanishi strategiyasi tanqidiy refleksiyani (mushohadani) yuksaltirish, egotsentrik atomizmdan muloqotga asoslangan hamjamiyatlarga o'tish hamda individual erkinlikni global (noosfera) mas'uliyat bilan birlashtirish orqali subyektlikka erishishdan iboratdir.

Yakuniy xulosa sifatida aytganda, inson bu ochiq tizim, hali tugallanmagan loyihadir. Ijtimoiylashuv va individuallashuv dialektikasi alohida inson ruhining ham, butun insoniyat sivilizatsiyasining ham yanada oqilona, gumanistik (insonparvar) va erkin borliq sari harakatidagi uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydigan o'sha ichki abadiy dvigateldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Августин Блаженный. Исповедь. – М.: Ренессанс, 1991. – 448 с.
2. Аристотель. Политика // Сочинения: В 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983. – С. 375–644.
3. Бауман З. Текучая современность / Пер. с англ. под ред. Ю. В. Асочакова. – СПб.: Питер, 2008. – 240 с.
4. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция / Пер. О. А. Печенкина. – Тула: Тульский полиграфист, 2013. – 204 с.
5. Выготский Л. С. История развития высших психических функций // Собрание сочинений: В 6 т. Т. 3. – М.: Педагогика, 1983. – 368 с.
6. Гегель Г. В. Ф. Философия права. – М.: Мысль, 1990. – 524 с.
7. Гоббс Т. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского // Сочинения: В 2 т. Т. 2. – М.: Мысль, 1991. – С. 3–546.
8. Декарт Р. Рассуждение о методе, чтобы верно направлять свой разум и отыскивать истину в науках // Сочинения: В 2 т. Т. 1. – М.: Мысль, 1989. – С. 250–296.
9. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд / Пер. с фр. под ред. В. А. Базарова. – М.: Мысль, 1994. – 399 с.
10. Кант И. Идея всеобщей истории во всемирно-гражданском плане // Сочинения: В 8 т. Т. 8. – М.: Чоро, 1994. – С. 12–28.
11. Лэш К. Культура нарциссизма: Американская жизнь в век снижающихся ожиданий / Пер. с англ. В. Ференц. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2001. – 384 с.
12. Маркс К., Энгельс Ф. Тезисы о Фейербахе // Сочинения. Изд. 2-е. Т. 3. – М.: Политиздат, 1955. – С. 1–4.
13. Маркузе Г. Одномерный человек / Пер. с англ. А. А. Юдина. – М.: REFL-book, 1994. – 368 с.
14. Платон. Государство // Сочинения: В 4 т. Т. 3. Ч. 1. – СПб.: Изд-во С.-Петербург. ун-та; «Изд-во Олега Абышко», 2007. – С. 97–494.
15. Руссо Ж.-Ж. Эмиль, или О воспитании // Педагогические сочинения: В 2 т. Т. 1. – М.: Педагогика, 1981. – С. 19–592.

16. Сартр Ж.-П. Бытие и ничто: Опыт феноменологической онтологии / Пер. с фр. В. И. Колядко. – М.: Республика, 2000. – 640 с.
17. Тиллих П. Мужество быть // Избранное. Теология культуры. – М.: Юрист, 1995. – С. 7–131.
18. Фромм Э. Бегство от свободы / Пер. с англ. Г. Ф. Швейника. – М.: Прогресс, 1990. – 272 с.
19. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы / Пер. с фр. В. Наумова. – М.: Ad Marginem, 1999. – 480 с.
20. Хайдеггер М. Бытие и время / Пер. с нем. В. В. Бибихина. – Харьков: Фолио, 2003. – 503 с.
21. Юнг К. Г. Структура психики и процесс индивидуации. – М.: Наука, 1996. – 269 с.